

## O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA POETIK TAFAKKUR KO'RINISHLARI

**Хайдарова Динора Суранбай кизи**

*Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri*

**Annotsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyotni obrazli idrok etish ko'nikmasini shakllantirish muammosini bolada tashqi olamga nisbatan estetik va emotsional-hissiy munosabatni shakllantirishning asosiy sharti sifatida qarashi, bu muammoning hal etilishi bolaning barkamol bo'lib tarbiyalanishi, unda ma'naviy madaniyatning shakllanishiga imkon yaratishi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bolalar adabiyoti, ijodiylik, poetik mahorat, ta'lim jarayoni, savod chiqarish, darslik, qadriyat, ta'limiy-tarbiyaviy asos, milliy o'zlik, kitobxonlik, mafkura, o'qitish nazariyasi.*

Har bir xalq bolalar adabiyoti uning kelajak poydevorini belgilovchi muhim omillardan biridir. Bolalar adabiyotida bugungi hayot yaqqol aks etishi bilan birga, taraqqiyot tasavvuri ham zuhur etiladi. Umumadabiyotdan farqli ravishda bolalar adabiyotidagi badiiy tafakkur, uslubiy izlanishlar, odam va olam tasviridagi rang-baranglik, obrazlilik jamiyat ma'naviyatining kelajagidan xabar beradi. Insoniyat paydo bo'lganidan buyon bolalik ham u bilan yonma-yon yashab kelayotgan ekan, asrlar davomida ijtimoiy hayot, davrlar o'zgargani sayin adabiy an'analar, uslublar qatori jamiyatning bolalikka munosabati, ularga mo'ljallangan badiiy ijod namunalari ham poetik tafakkur yangilanishi davom etib kelmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining taraqqiyot xususiyatlarini, bunda ijodkor va yoshlar tafakkurining poetik ifoda etilishini tarixiy-qiyosiy, tipologik jihatdan ko'rsatib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Poetik tafakkur evolyusiyasini, rivojlanish omillari va qonuniyatlarini tadqiq etish natijasida dunyo xalqlari bolalar adabiyotida aks etuvchi milliy psixologiya, badiiy-estetik an'ana hamda yangilanishlarning mavjud adabiy jarayon taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslash ahamiyat kasb etadi.

Jahon adabiyotshunosligida bolalar adabiyotining yaxlit tarixiy- adabiy jarayon ekanligini dalillashga qaratilgan yirik tadqiqotlar yaratilmoqda. Uning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, mavzuviy yo'nalishlari, badiiy tur va janrlari, syujet, motiv, obrazlarining zamonga muvofiq muttasil takomillashib borayotgani poetik tafakkur rivojidan ham dalolat beradi. Shu sababli bolalar uchun yaratilgan nasriy, she'riy, dramatik asarlarda badiiy tafakkurning ifodasi, tadrijiy takomil belgilari, yangilanish ehtiyoji, tarixiy-ijtimoiy, falsafiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy omillari, estetik qonuniyatlarini ochish ularda ijodkor hamda bola idroki, fikrlash taraqqiyotiga xos xususiyatlarni oydinlashtirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyotining badiiy-psixologik, lingvokreativ jihatlarini aniqlash zaruriyati esa dolzarblik kasn etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev „Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz“ kitobidagi mulohazalarida “... jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash – boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi” e'tirof etiladi. Ayniqsa, “... boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishini ta'minlash asosiy maqsadimiz ekanligi,

... bugungi kun Sharqona tarbiya mazmunida his etilishi zaruriyati mavjud ekanligi<sup>7</sup> ta'kidlanadi. Yurtboshimizning bu fikrlari yosh avlodni boshlang'ich sinflardayoq ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim insonning bilim va tarbiya olishida poydevor vazifasini o'taydi.

Zamonaviy o'quvchilar tomonidan obyektiv borliqni to'g'ri qabul qilish shuning uchun ham qiyinlashib bormoqdaki, taraqqiyotning hozirgi bosqichida insonning asl tabiati deyarli butunlay "ikkilamchi tabiat", ya'ni texnikaviy xususiyatga ega bo'lgan sun'iy tabiat bilan almashtirildi. Bu hodisa insonning tevarak-atrof bilan tabiiy aloqa tarmoqlarini go'yo "muzlatib" qo'ydi, sezgi a'zolari ishi ham zaiflashib qoldi. Yaxlitlikka tomon harakat qilish zaruriyati tufayli biz yaxshi ko'rmaydigan, yaxshi eshitmaydigan va yaxshi sezmaydigan bo'lib qoldik. Ammo inson faqat o'zigagina xos bo'lgan yana bir xususiyatini namoyon qildiki, buni "uchinchi tabiat" deb atash mumkin. Bu san'at bo'lib, uning vositasida insoniyat, uning qalbi, butun ichki dunyosi, kechinmalari yuzaga qalqib chiqdiki, buni ko'ra olish, his eta olish hammaga ham nasib etavermaydi. Agar kim birovlarning dardini tushuna olish, ularga hamdardlik bildira olish kabi xususiyatlarga ega bo'lsa, ana shunday kishilargina haqiqiy san'at asarini baholay oladilar.

Shunday sharoitda ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan imkoniyatlarni, shuningdek, bola uchun eng yaqin bo'lgan san'at turi hisoblangan badiiy adabiyotni yangicha usullarda qo'llash muammosi o'ta dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Bolalarni kitob o'qishga o'rgatish O'zbekistonning ma'naviy zahirasi sifatida milliy madaniyatni asrash va rivojlantirish sohasidagi davlat ahamiyatiga molik o'ta muhim vazifa bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchiga haqiqiy badiiy asarni o'rganishga yo'l ko'rsatish ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki aynan bola shaxsida qimmatli shaxsiy sifatlar shakllana boshlaydigan ana shu davrda uni san'at asarlari bilan mustaqil muloqot qilishga o'rgatish orqali O'zbekiston Respublikasining "Uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish dasturi" da belgilangan muhim vazifa - "o'quvchilarda ma'naviyat va madaniyatni, samarali ijtimoiylashish ko'nikmalarini shakllantirish" muammosini hal etish mumkin.

Ma'lumki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyotni obrazli idrok etish ko'nikmasini shakllantirish muammosini bolada tashqi olamga nisbatan estetik va emosional-hissiy munosabatni shakllantirishning asosiy sharti sifatida qarash lozim. Zero, bu muammoning hal etilishi bolaning barkamol bo'lib tarbiyalanishi, unda ma'naviy madaniyatning shakllanishiga imkon yaratadi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni hisobga olmasdan, faqatgina umumiy ta'lim mazmuni va tuzilishini o'zgartirish bilangina ushbu muammoni hal etib bo'lmaydi.

Istiqlol sharofati bilan xalqimizning ko'p asrlik tarixiy, madaniy, diniy, adabiy merosini umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholash tendensiyasi shakllandi, milliy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgardi. Bu jarayonning mantiqiy yakuni o'laroq badiiy

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev „Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz“ kitobi, Toshkent, 2020, 56-bet

tafakkur va talqinlar yangilandi, bolalar adabiyotining mazmun - mohiyati kengaydi, ko'lamini oshdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 12 yanvarda qabul qilgan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishida alohida ta'kidlanganidek, "bolalar adabiyoti yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan badiiy, ma'rifiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishga bevosita xizmat qiladi va uning ahamiyati ushbu xususiyatlar bilan o'lchanadi"<sup>1</sup>. Bu vazifalarni amalga oshirish o'zbek bolalar adabiyotini rivojlantirish, uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish hamda bolalar adabiyoti vakillari ijodini monografik tarzda o'rganish, ularning mukammal ijodiy portretlarini yaratish bilan bevosita bog'liq.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'zbek bolalar adabiyoti yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi, ma'rifiylik-tarbiyaviylik xususiyatlarini unutmagan holda, kun tartibida badiiy barkamollik masalasi yetakchi mavqe kasb eta boshladi. Bu davrga kelib, bolalar adabiyoti namoyandalari safi sifat jihatdan ham o'sdi. Endi ular jahon bolalar adabiyotining eng yaxshi an'alarini o'zlashtirib, ularga tenglasha boshladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida», 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Zamonaviy, har tomonlama barkamol insonni shakllantirishdagi muhim mezonlar sirasiga ichki ruhiy olamning go'zalligi, hur fikrlilik, ma'naviy barkamollik, yuksak axloqiy tarbiya, nozik estetik did, shaxslararo, millatlararo hamda turli ijtimoiy munosabatlarda tolerantlik kabi sifatlarni kiritish mumkin. Bu sifatlarning barchasini samarali rivojlantirish bevosita ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Insonparvarlik prinsiplariga asoslangan shunday ta'lim-tarbiya tizimi (Z.Mirtursunov, M.Ochilov, S.Rajabov V.A.Krakovskiy, I.D.Demakova, B.R.Adizov, A.R.Hamroyev) o'quvchi ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan.

O'zbek bolalar adabiyoti umumadabiyot bag'rida qadimdan rivojlanib kelmoqda, uning ildizlari folklor, mumtoz adabiyotimiz bilan tutashib ketganligi uchun bu genetik aloqadorlik hozirgacha bolalar adabiyoti namunalarida saqlanib kelayotgan mifologik va epik tafakkur bilan bog'liq arxetip syujet, motiv va obrazlarning, ular asosida vujudga kelgan mifologizmlar, folklorizmlar misolida yaqqol ko'rinadi. Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qilib, o'zbek bolalar adabiyotining rasman qaror topishi umumadabiy hodisaning yangi bir qirrasini sifatida maydonga kelishi va unda poetik tafakkur yangilanishi uchun mustahkam zamin yaratdi. O'zbek bolalar

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi hh Xalq so'zi, 2017 yil, 13 yanvar

adabiyotida poetik tafakkurning yangilanish sabablari: a) uzoq asrlardan davom etib kelayotgan didaktik pandnomalardan bolalarga mo'ljallab èzilgan realistik hikoyalar, syujetli she'rlar yaratishga o'tilishi; b) bolalar obrazi asosiy qahramon sifatida talqin etilishi; v) adabiy janrlarning bolalarbop namunalari maydonga kela boshlashi; g) bolalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari asosida adreslilik kasb etishi kabilarda namoyon bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

13. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O'zbekiston. NMIU. 2016. - 56 b.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami). - T.: 2017.

3. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF .15  
ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK  
METHODOLOGY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences  
Vol, 7(6).

16. Nusratova, H. (2021, October). BOSHLANG'ICH SINIF  
O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: DOI:  
10.53885/edinres. 2021.80. 81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU,  
Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasida dotsenti, PhD. In Научно-практическая  
конференция (pp. 51-52).

17. Hamida, N. (2022, March). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN  
TASHQARI O'QISH DARSLARINING O'QITILISH HOLATI: DOI: 10.53885/edinres.  
2021.68. 31.102 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fanlari  
kafedrasida dotsenti, PhD Tursunova Zarina, Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistri.  
In Научно-практическая конференция.

18. Нусратова, Х. Н. (2021). 13. ХЧ Нусратова Ўзбек болалар адабиёти  
қиссачилиги ривожиди Сафар Барноев асарларининг тутган ўрни: ХЧ Нусратова,  
Низомий номидаги ТДПУ доценти, ф. ф. б. PhD. Образование и инновационные  
исследования международный научно-методический журнал, (1).

19. Нусратова, Х. Ч. (2021). ЭВОЛЮЦИЯ УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ  
ПОВЕСТВОВАНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА САФАРА БАРНОЕВА). Интернаука,  
(11-1), 18-20.

20. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT  
EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT  
//International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - Т. 3. - №. 1. - С. 146-  
149.

21. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT  
EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT  
//International Bulletin of Applied Science and Technology. - 2023. - Т. 3. - №. 1. - С. 146-  
149.

22. Irisbayeva Y. Using" Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. - 2018. - №. 6.
23. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. - 2019. - №. 1.
24. Irisbayeva Y. **PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE**